



## IJTIMOIY XAVFLI OILA FARZANDLARI

## EMOTSIONAL HOLATLARINING PSIXOLOGIK TAHLILI

*Uzaqova Ominaxon Akramovna*

*Oltiariq tumani 37-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi*

**ANNOTATSIYA:** Oilaviy munosabatlar qadim-qadimdan beri o'rGANIB kelinayotgan muhim masalalardan biri hisoblanadi va unga nisbatan har qaysi zamonda va har qaysi makonda o'ziga xos qarashlar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** oila, munosabatlar, emotsional intellekt.

### KIRISH

Mamlakatimizda oilaga bo'lgan e'tibor doim diqqat markazida bo'lib kelgan. Oila mustahkamligi, oilaviy baxt tushunchasi, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro hurmat mentalitetimizga xos tushunchalar bo'lib, u asrlar osha avloddan avlodga o'tib kelayotgan milliy qadriyatimizning ajralmas bo'lagi va eng asosiy tarkibiy qismidir. Bugungi kunda ham inson o'zining to'laqonli baxtini his etishida oila va va undagi shaxslararo munosabatlar o'z ahamiyatini yo'qotmagan. 24-iyul kuni O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Facebook ijtimoiy tarmog'idagi rasmiy sahifasida davlat rahbari tavalludining 61 yilligiga bag'ishlangan «Janob Prezident» nomli hujjatli film namoyish qilindi. Intervyuda O'zbekiston prezidenti oila va baxt haqidagi fikrlarini o'rtoqlashdi. Uning fikricha, har bir inson hayotida eng muhimi, bu — oila. «Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor qayerda ishlashidan qat'i nazar, kim bo'lishidan qat'i nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hech qachon natija bo'lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e'tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o'zimning munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman», - dedi u. «Odam baxtliman deyishga qanchalik haqqi bor? Agar oilang bilan sen baxtli bo'lsang, baxtliman deyishga haqqing bor. Faqat oilam emas, xalqim baxtli bo'lsa men o'zimni baxtli deb bilaman», - deya ta'kidladi prezidentimiz.



## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqotchilar bu borada ham tadqiqotlar olib borishgan va statistik tahlil natijalarini qayd etishgan. Rossiyada oliy ma'lumotlili mutaxassislarning 58% ayollar, 42%ini esa erkaklar tashkil etadi. Ijtimoiy faoliyatning feminizatsiya qilingan sohalarida ayollar erkaklarga qaraganda yetakchilik mavqeini ko'proq egallaydilar. Buni o'rta va oliy ta'lim sohasida yaqqol ko'rish mumkin. 2013-2014 o'quv yilida ta'lim va fan kadrlari orasida quyidagi holat kuzatildi. Umumta'lim muassasalarida - ayollarning ta'lim sohasi (pedagogik mutaxassisliklar) - direktorlarning 74 foizini ayollar va 26 foizini erkaklar, direktor o'rinnbosarlarining 26 foizini ayollar va 11 foizini erkaklar tashkil etgan. O'qituvchi va pedagoglar asosan ayollardan tashkil topgan - 88%, erkaklar - 12%. F.R.Ro'ziqulov ilmiy izlanishlarida o'zbek oilalarda ajralishning ijtimoiy-psixologik asoratlarini ilmiy asoslashga harakat qilgan. Muallif muayyan darajada ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davomida oila-nikoh munosabatlari, uning barqarorligini ta'minlashning ba'zi omillari to'g'risidagi ilg'or qarashlarni va hozirgi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan davlat ahamiyatidagi tadbirlarni tahlil qilarkan, oila-nikoh munosabatlarining jiddiy jihatlaridan biri sifatida hali har oilalarning buzilishi - ajralishlar borligini alohida ta'kidlab o'tadi.

Bolalar 3 yoshgacha o'z ota-onalari bag'rida hissiy to'yingan holda ulg'ayishlari kerak. Rivojlanishning bu dastlabki uzilishi, kattalarga bilinmasligi mumkin biroq, bolalar uchun bu holat katta bir ruhiy og'riqlarniberishi mumkin. Shuning uchun ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar bilan ishlash jarayonida, ijtimoiy ish mutaxassisi eng avvalo bolaning oilasi bilan tanishib olishi lozim. Oilani birlamchi va majmuaviy baholay olishi kerak. Oiladagi qaysi noto'g'ri ijtimoiyqadam, bolani yetimlik holatiga yoki ijtimoiy yetimlik vaziyatiga tushirib qo'yayotganligihaqida, xulosalarga kelib olishi juda zarur. Albatta bunday ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar bilan ishlash jarayonida, bolaning yosh xususiyatlari va ular tushib qolgan ijtimoiy vaziyatlarga ham e'tibor qaratiladi. Ijtimoiy ish xodimi bunday vaziyatlarda, muammoga ko'opleks yondashadi. Hech bir vaziyatni ko'zdan qochirmaydi. Natija uchun harakat qiladi. Asosiy qism: Aholining maxsus



davlat va jamot qaramog'iga muhtoj toifalari orasida yetim bolalar, ijtimoiy yetim bolalar va ota-onal qaramog'isiz qolgan bolalar alohida o'rinn tutadi.

Ta'kidlash joyiz, rivojlangan davlatlar tajribasida ota-onal qaramog'idan mahrum bo'lган bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi bir vaqtning o'zida bolalarga yordam berishga va biologik oilani muvaffaqiyatli reabilitatsiya qilish uchun qulay shartsharoitlar yaratishga yo'naltirilgan. Avvalo, yuqoridagi tushunchalar mohiyatiga to'xtalaib o'tsak. Demak, yetim bola bu otasi ham onasi ham vafot etgan, yoki ular sud qaroriga binoan vafot etgan deb e'lon qilingan bola. Ijtimoiy yetimlik bu -otaqaramog'isiz qolgan bolalar, shu jumladan turli sabablarga ko'ra ota-onasi ularni tashlab ketgan yoki ota-onalik huquqlaridan mahrum bo'lган va to'liq davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan bolalar hisoblanadi<sup>2</sup>. Ijtimoiy yetimlik atamasi, XX asrning 90 yillarida ishlatila boshlandi. Demak, ijtimoiy yetimlik hayotimizda qadimdan davom etib kelayotgan ijtimoiy fenomendir. Bu ijtimoiy jarayon negizida, bolalarni otaona qaramog'isiz qolishlari va shu asnoda qiyin hayotiy vaziyatlarga tushib qolishlari yotadi. Ota-onal qaramog'isiz qolish, ta'rifi shuni ko'rsatadiki, har bir oilada ota-onal o'z burchlarini bajarish uchun yetarli moddiy-moilyaviy, ma'naviy va umumiij ijtimoiy sharoitlarning yo'qligidan, ota-onalar o'z masuliyatlarini, mehr-muhabbatlarini, rahim-shafqat va g'am chekish tuyg'ularining defitsiti sharoitida farzand dunyoga keltirib, so'ogra ularni turli sabablarga ko'ra tashlab ketmoqdalar. Bugungi kunda bunday ijtimoiy salbiy holatlar, ko'zga tashlanmoqda. Ijtimoiy yetim bolalar bilan, ishslash jarayonida bolalarning nafaqat huquqiy balkiy ruhiy jihatdan ham yordam ko'rsatish tizimiga alohida e'tibor berish kerak.

Ota-onal qaramog'isiz qolgan bolalarda, ko'pincha jismoniy va aqliy rivojlanishdan orqada qolish holatlari kuzatiladi. Bunday bolalarda ota-onaning mehri yo'qligi tufayli, atrofdagi odamlar tomonidan tan oldirish (egoist)lik xarakteri ham rivojlanadi. Umumiij qilib aytganda, oiladantashqarida yashovchi bolalar o'zlarini qabul qilishlari qiyinroq kechadi. Shuning uchun bunday bolalar, o'zlarini ijtimoiy muhitda tasdiqlash uchun ular ko'pincha kuch va tajovuzdan foydalanadilar. Agar bunday bolalarga o'z vaqtida yordam berilmasa, ular kelgusida o'z oilasini



yaratish va bolalarini tarbiyalashda ham bir qator qiyinchiliklarga duch keladilar.

Ota-onas qaramog'isiz qolgan bolalarni oilalarga jalg qilish, oiladagi tarbiya va uning samaradorligini shuningdek bolalarni ijtimoiy himoya qilish muassasalari faoliyatini baholash, bunday bolalar bilan amaliy ish olib borayotgan mutaxassislarining salohiyatini oshirib borish juda zarur sanaladi. Qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan, bolalar bilan ishlashda quydagi yo'nalishlarga e'tibor qaratiladi. tibbiy yordam;-ijtimoiy-yuridik maslahatlar;-kasbiy yo'naltirish;-ijtimoiy-psixologik konstalting;-ijtimoiy-psixologik yordam; Yuqoridagi yordamlarni, tizimli va izchil amalga oshirish bu toifa bolalarning ijtimoiylashuv jarayonida 3 ta asosiy vazifani hal etadi. 1.Moslashadirish;2.Avtomatlashtirish (kasbga oid);3.Shaxsiyatni faollashdirish; Ijtimoiy ish kasbiy faoliyatining barcha yo'nalishlariga nazar nolsak, ular orasida ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar bilan ishlash, keng qamrovli ekanligi bilinadi.

O'zbekistonda umumiy bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini uzoq muddatli, isloh qilish bo'yicha takliflarni muhokama qilish uchun davlat va nodavlat tashkilotlari vakillari va xalqaro ekspertlar, ishtirokida bir qator davra suhbatlari bo'libo'tmoqda. Bunday suhbatlar, "Oila" markazi va UNISEF tomonidan birgalikdagi olib borilayotgan ishlar tizimi negizida amalga oshirilmoqda. UNISEF tadqiqotchilari, qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan bolalar bilan ishlash uchun ijtimoiy xodim kasbini ilgari surish va bunday xodimlar salohiyatini oshirish, kerakligini takidlaydi. Ijtimoiy ish xodimi, bunday bolalar bilan ko'mpleks ishlash jarayonlariga ahamaiyat qaratishi lozim bo'ladi. Bu borada bolalarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha, normativ hujjatlarni bilishi va mavridida bu hujjatlardan amalda bolalar himoyasi uchun foydalana olishli kerak bo'ladi. Yangi O'zbekistonda, har bir bolaning barcha huquqlarini ta'mimlash ustuvor vazifa bo'lib bormoqda. Milliy huquqiy tizimida, bola huquqlariga oid Qonunlar alohida o'rinn tutadi. Bu haqida fikr yuritilganda, so'nggi yillarda milliy qonunchiligidan bola



huquqlari bilan bog'liq bo'lgan, qonuniy hujjatlar soni 40 dan, qonunosti hujjatlar soni esa 500 dan ortiqni tashkil etmoqda.

## XULOSA

Tahlillarga ko'ra, oilada yolg'iz farzandlar va ko'p farzandli oilalardagi farzandlarning emotsional intellekti xususiyati o'rtaida ishonch darajasida farq topilmadi. Bundan kelib chiqqan holda, oiladagi farzandlar soni ularning emotsional intellekti xususiyatining turlichiga ta'sir ko'rsatmaydi, degan xulosaga keldik.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Imomqulova, F. (2021). ОИЛАДАГИ ТАРБИЯ УСУЛЛАРИНИ БОЛАНИНГ МУВАФФАҚИЯТГА ЭРИШИШИГА ТАЪСИРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/3076>
2. Imomqulova, F. (2021). ОИЛАДА ЭР-ХОТИН МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2962>
3. Burlievna, K. D. (2022). THE WAYS OF INCREASING RELATIONSHIP BETWEEN HOME AND SCHOOL ENVIRONMENT IN CHILDREN'S PSYCHOLOGICAL DEVELOPMENT. ИЖТИМОЙ ФАНЛАРДА ИННОВАЦИЯ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 2(3), 37-4
4. Karshibaeva, D., & Sattarova, F. (2020). CRITICAL THINKING IN ADOLESCENTS. EurasianUnionScientists, 1(12 (81)), 4-5.